KICHIK GURUHLAR PSIXOLOGIYASI VA KICHIK GURUHLARDA UCHRAYDIGAN MUOMMOLARNING BIR NECHA SABABLARI HAMDA YECHIMLARI

Botirova Yorqinoy Dilshod qizi
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
O‘sganova Muhlisa
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
e-mail: yorqinoybotirova135@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda kichik guruhlar psixologiyasi va kichik guruhlarda uchraydigan asosiy muommolar hamda sabablar va yechimlar. Guruh a’zolarining shaxslararo munosabatlari. Muomila madaniyati,mehr-oqibati,o‘zarohurmati haqida so‘z yuritilgan. Shu bilan birga jamoa ichidagi shaxslarning liderlikka intilishi. Guruhlardagi liderlar jamoani qanday boshqarishni biladi, albatta barcha ma’suliyatni o‘z zimasiga olsa jamoani birlashtirib, hamjihatlikda ishlashga undasa maqsadga muofiq ish bo‘ladi va bu guruh eng yaxshisi bo‘la oladi.

Kalit so‘zlar: Kichik guruhlar psixologiyasi,guruhlardagi muommolar, guruh a’zolari, xarakter xususiyati, liderlikka intilish, munosabatlar, muomila madaniyati

Annotation: This article discusses the psychology of small groups, the main issues that arise within them, their causes, and solutions. The interpersonal relationships among group members, the culture of communication, compassion, and mutual respect are analyzed. Additionally, it addresses the aspirations of individuals within the team for leadership and how leaders manage the group. When leaders properly understand their responsibilities and encourage the team to work together in unity, it helps the group perform successfully and creates opportunities to achieve the best results.

Key words: Psychology of small groups, problems in groups, group members, character traits

Kichik guruhlar chegaralangan bo‘ladi, shuning uchun ham ,,Kichik guruh” deb ataladi. Kichik guruhlar 2 kishidan boshlab, 30-40 tagacha bo‘ladi.2 kishilik guruhga biz yangi turmush qurgan oilani misol qilib aytishimiz mumkin,demak oila ham kichik guruhni tashkil qilishar ekan.30-40 kishilik guruhga biz o‘quvchilardan iborat sinfni,talabalardan iborat guruhni hamda 30-40 kishidan oshmagan jamoani misol qilib aytishimiz mumkin.

Albatta, tanganing nargi tomoni ham bordeganlaridek Kichik guruhlarda ham turli o‘ziga yarasha muommo va kamchiliklari bo‘ladi. Kichik guruhlarda uchraydigan asosiy muomolardan biri kelishib bir yoqadan bosh chiqarib, hamjihatlikda harakat qilmasligidir. Bunda bir guruh sardoriga bo‘ysunmasligi, gaplariga quloq solmasligi, o‘zini hammadan yaxshiroqman deb hisoblashi, o‘zidan boshqaning gaplariga e'tibor qaratmasligi yoki guruh a'zolari bilan yaxshi munosabatda bo‘lmay,ularni mensimasligi bo‘lishi mumkin. Masalan, bir guruh a’zolarining tuli xil sharoitlarda o‘sganligi bo‘lib, hamma sharoiti yaratib berilgan guruh a’zosining o‘zidan biroz sharoiti og‘iroq guruh a’zosini hurmat qilmasligi, fikrlarini inobatga olmasligi, o‘zini undan bir pog‘ona yuqori hisoblashi hamda past nazar bilan qarashi mumkin. Guruhdagi bunday muommo va kamchiliklar va shunga o‘xshash vaziyatlar guruhning tarqoq bo‘lishiga rivojlanib yaxshi o‘smasligiga va ming afsuski guruh tarqalib ketishiga yoki guruh a'zolarining tez-tez almashishiga sabab bo‘ladi. Bunday guruh o‘solmaydi, rivojlanmaydi, yangiliklar yarata olmaydi, yuksaklikka ko‘tarila olmaydi. Bunday vaziyatlar bo‘lmasligi uchun guruh tashkil qilishda ba'zi bir asosiy narsalarga e'tibor berish kerak.

Guruh tashkil qilinayotganda har bir guruh a'zosi bo‘laman degan har bir ishtirokchining xarakteri, dunyoqarashi, qanday fikrlashiga oid umumiy test, savol-javob va treninglar o‘tkaziladi va natijalarga binoan bir-biriga o‘xshagan harakter,nisbatan bir xil fikrlash va dunyoqarashga ega bo‘lgan shaxslar bir jamoaga olinadi.Bunday usulda birlashgan jamoada o‘sish, bir-biriga bo‘lgan o‘zaro hurmat hamda rivojlanish, yangiliklar yaratish va albatta yuksaklikka ko‘tarila olishi mumkin.Yana shuni ta'kidlash joizki ,guruh a'zolarining bir-biriga bo‘lgan hurmat-e'tibori va

albatta guruh a'zolarining orasida liderlarning bo‘lishi katta guruh bo‘ladimi, kichik guruhlar bo‘ladimi barbir muvaffaqiyatlarga erishadi, yuksaklikka ko‘tarila oladi. Guruhlardagi liderlar jamoani qanday boshqarishni biladi,albatta barcha ma’suliyatni o‘z zimasiga olsa jamoani birlashtirib, hamjihatlikda ishlashga undasa maqsadga muofiq ish bo‘ladi va bu guruh eng yaxshisi bo‘la oladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki,kichik guruhlarda faoliyat olib borish,anchagina murakkab bo‘lsada, bunday guruh a’zosi bo‘lish va shunday guruhda rivojlanish juda yaxshi. Agar aytib o‘tganimizdek,o‘z xohish-istagi bilan psixologlar yordamida o‘tkazilgan treninglar hamda testlar orqali saralab,tanlab olingan guruh bo‘lsa, aynan shunday guruhlarda rivojlanish,yangiliklar yaratish,oldinga hammadan ko‘ra ko‘proq intilish, yuksaklilka chiqish, ko‘plab yutuqlarga erishish kuzatiladi.Bunday guruh yaxshi rivojlanishi har bir guruh a’zosining xohish-istagi va albatta harakatiga bog‘liq. Hamma bir kishi uchun,bir kishi hamma uchun harakat qilsa bundan yaxshi guruh bo‘lmaydi.Bundan ko‘rinadiki hamma baravariga harakat qilsa guruh rivojlanadi,o‘sadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Nishanova Z.T., Kamilova.N.G., Abdullayeva D.U., Xolnazarova M.X. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. - 2018. - 600 b

2. G‘oziyev E.G. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent, 1997

3. Karimova V. Psixologiya. –Toshkent, 2000

4. G‘oziyev E.G. Psixologiya (Yosh davrlar psixologiyasi). -T.: O‘qituvchi. 1994

5. Davletshin M.G‘., To‘ychiyeva Sh.A., Mavlonov S.M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. -T.:TDPU, 2004 y.

6. Ibragimov X.I., Yo‘ldoshev U.A. Pedagogik psixologiya. -T.: 2010 y